

**TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHI YOSHLARNING KASB TANLASH
PSIXOLOGIYASI.**

Qurbanova Zulfiya Hakimovna

Shahrisabz tumani 6- maktab psixolog

Tajribalardan ma'lumki ko'p hollarda maktab o'quvchilari kasb tanlashda amaliy yondoshishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda u yoki bu kasbni yoqtirganlari to'g'risida ham fikr bildiradilar. Lekin "tanlangan kasb kishida ma'nnaviy qoniqish hissini uyg'otadimi yoki yo'qmi jamiyat uchun qay darajada naf keltirishi o'quvchilar tomonidan anglanadimi?" degan savolga javob berilgan taqdirdagina ijobiy natija berishi mumkin. Ammo shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, kasbni tasodifan tanlash, ba'zan o'quvchilarda og'ir ichki kechinmalar, umidsizliklar, ikkilanishlar va ruhiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Bunday har xil munosabatlar yuz berishining asosiy sabablaridan biri, maktab o'quvchilarining kasb tanlash jarayonida turli motivlarning namoyon bo'lishidir.

Motivlar o'rtasidagi kurash ularni u yoki, bu qarorga olib keladi. Voqiylikka ongli munosabatda bo'lish esa, o'quvchilarda obektiv va qattiy qarorni qabul qilishni keltirib chiqaradi. Shu o'rinda o'quvchining biror kasbga va fanga moyilligi, o'z oldiga qo'ygan maqsadi, unga intilishi, salomatligi, asab tizimining xususiyatlari va temperamenti (mijozi) bilan bog'liq motivlarni sanab o'tish mumkin.

Kasb tanlashning ijtimoiy jihatidan tashqari, psixologik asoslari ham mavjuddir. Jumladan, ularga quyidagilarni kiritish mumkin.

- Kasblarni o'rganish metodlarini ishlab chiqish va ularni muayyan guruhlarga ajratish;
- O'quvchilarni kasb-hunar va uning turlari to'g'risida va kasbning jozibadorligi bilan tanishtirish;
- O'quvchilarning mehnat ta'limida kasbga tayyorlarligini aniqlash va unga nisbatan mehr uyg'otish;
- O'zbekiston Respublikasi tashxis markazi tomonidan ishlab chiqilgan so'rovnomalar natijalari tahlili bilan o'quvchilarni tanishtirish.
- Zamonaviy kasblar haqida o'quvchilarga tushunchalar berib borish
- Shuning bilan birga o'quvchilarda tug'ma layoqat, ishtiyoq, qobiliyat, istedod o'qishga kasbga qiziqish hamda bularning barqarorligi ularning amaliy ifodasiva ko'rinishi singari ijobiy fazilatlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish muhimdir.

Yuqorida sanab o'tilgan kasb tanlashning eng zarur jihatlari ushbu psixologik yo'nalishlar zamirida amalga oshiriladi.

- Kasb-hunarga yo'naltirish
- Kasbiy maslahat
- Kasbni saralash

- Kasbga moslashish
- Kasbiy tarbiya kabilar.

Kasb tanlashga yo'llashda quyidagilarga e'tibopr berish lozim.

Kasbiy maslahat- o'quvchilar shaxsining jismoniy rivojlanishi salomatligi darajasi kasbiy qiziqishi kasbga moyilligi qusti, ularning aqliy taraqqiyoti ko'rsatkichining umumiylari darajasi u yoki bu kasbga nisbatan maxsus qobiliyati va nihoyat o'quvchi yoshlarning ahloqiy qiyofasini tavsiflovchi tomonlarini o'rganishni shuningdek, aniqlangan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda kasbga nisbatan shaxsga yuksak savyadagi maslahat berishni ta'minlash.

Kasb tanlashga yo'llash Pedagoglar shifokorlar, psixologlar kasbga yo'naltiruvchi va boshqa mutaxssislarning ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdagi maslaharlari tushuntirishi kabi tadbirlar tizimidan iboratdir. Bu o'quvchi shaxsining ko'p qirrali tashxis uslublari yordamida o'rganish iborat bo'lib, ushbu jarayon so'zlardan tuzulgan testlar, fazoviy tasavvurda ifodalanuvchi, topishmoqli rasmlar, kompyuterga joylashtirilgan testlar (profnavigator.uz saytidagi 7-11 sinflar uchun), shuningdek turli tuman ko'rinishdagi anketalar va savol varaqalari orqali amalga oshirilishi mo'ljallanadi. Bundan tashqari amaliy tashxis toifasiga kiruvchi qator usul va uslublarini qo'llash nazarda tutiladi. O'quvchilarni kasbiy saralash uchun,dastavval, ularning muayyan kasbga layoqati va yaroqlilik darajasini ko'rsatuvchi jismoniy hamda psixik sifatlari aniqlanadi. Natijada kasbga xos muhum fazilatlar o'quvchida qanday namoyon bo'lishi o'rganiladi, binobarin, bunday xususiyatlar o'zaro bir-biri bilan solishtiriladi. Kasbga saralashni keltirib chiqaruvchi bosh omil- bu mehnat turlarining, kasb mohiyatini o'quvchilar tomonidan bir tekis egallay olmasligidir. Kasbni to'g'ri tanlanganlik, tanlash mezoni ijtimoiy sinovlar hamda shaxsiy tajribalar orqali tekshiriladi. Shu boisdan kasbning muqaddasligiga yoshlarni ishontirish, ajdodlar an'analariga sodiqlik hissida ularni tayyorlash saralashning samarasini ta'minlaydi. Maktab o'quvchilarining kasbga layoqati va yaroqlilagini ko'rsatuvchi asosiy mezonlardan biri kasbga moslashish, ya'ni kasbiy muhitga, vaziyatga moslashishdir. Ularning kasb egasi sifatida o'zini-o'zi ko'rsatishlari uchun nazariy bilimlardan amaliyatga, mehnat faoliyatiga o'tish jarayoni alohida ahamiyatga ega bo'lib, tanlab olingan mehnat turiga va kasbiy sharoitga, vaziyatga, muhitga moslashish, sube'kt bilan ob'ekt munosabatga kirishishda ko'nikish asta-sekin sur'atda amalga oshishida ifodalanadi.

Tanlangan mehnat va kasb turiga moslashish, ko'nikish asta-sekin amalga oshadi. Bunda maktab mikro va makro muhitida egallangan ko'nikma va malakalar aniq mehnat turiga, hamda sharoitiga tadbiq qilib ko'riliishi lozim. O'quvchilarning kasbiy sharoitga moslashishini o'rganish uchun uning xususiyatlarini, bu jarayonda salbiy omillar kelib chiqishini hisobga olish, uni tezlashtirish uchun meyyoriy mehnat faoliyatiga zarur shart- sharoitlarni yaratish, "sub'ekt-sub'ekt" munosabati diqqat markazida chetga chiqmasligi darkor.

Kasb tanlashda yo'llashda uch muhim jihatga e'tibor qilish zarur.

- Birinchi jihatni Xalq xo'jaliligining mutaxassislarga nisbatan bo'lgan ehtiyojini hisobga olish

- Ikkinci jihatni O'quvchilarga hayotda to'g'ri yo'l topishida ko'maklashish hamda yoqtirgan kasbi bilan shug'ullanishi uchun imkoniyat yaratish.

- Uchunchi jihatni Yoshlarga jamiyatda o'z o'rni va vazifasini egallashga yordamlashish va boshqalar.

Bu jarayon o'quvchilarini asosli va ongli kasb tanlashga yo'naltirilgan chora va tadbirlar tizimini yaratishdan iborat bo'lib ilmiy negizga qurulishi lozim. Bu o'rinda kasbning mohiyati uning tavsifi ijtimoiy nufuzi tarixiy taraqiyoti uchun ahamiyatini o'qtirib o'tilishi o'quvchilarda o'ziga ishonch hissini uyg'otadi.

Yuqoridaagi mulohazalarimizdan ko'rinish turibdiki, kasb-hunar to'g'risidagi axborot, ma'lumot va maslahatlar ongli kasb tanlash uchun hali etarli emas, chunki o'quvchilarini bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil bilim olishga o'rgatish lozim. Kasb tanlovchiga o'z kuchi, qobiliyati, iste'dodini u yoki bu faoliyatda sinab ko'rishga imkoniyat yaratib berish yo'li ijobiy natija beradi. Kuzatishlarimizcha, barcha fanlarni o'qitishda mahalliy materiallardan unumli foydalanish, har qaysi maqsadi mohiyatidan kelib chiqib, darslarda kasb-hunar to'g'risida axborotlar berib borish, mehnat sohalari bilan kasb tanlovchini tanishtirish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, yozgi ta'til davrida o'spirinlarni ishlab chiqarishga tortish, ularda mehnat mahsulidan bahramand bo'lish va rohatlanish hissini vijudga keltirish, muayyan reja, ma'lum yo'l-yo'ruq asosida ishlash ko'nikmasini tarkib toptirish, javobgarlik va mas'uliyat tuyg'ularini shakillantirish kompleks tarzda hal qilinishi lozim. Mazkur holat mehnat va kasbga psixologik tayyoragarlik bosqichi vazifasini o'taydi, yoshlar amaliy faoliyatda qanday ko'nikma va malakalarni egallashga erishganligini anglab yetadilar. Shu tariqa o'quvchilar o'zlarining qaysi kasb-hunar turiga layoqati va yaroqlilik darajasini shaxsiy amaliyotda sinab ko'radilar, psixologik xususiyatlariga qo'yilgan talablarga javob berishi yoki bermasligi yuzasidan qattiy ishonch tuyg'usini hosil qiladilar.

Kasb tanlashga yo'llash va kasblarni targ'ib qilish usullaridan biri ko'rsatmali vositalar, ya'ni elektronko'rgazmalardan, kitob ko'rgazmasidan, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining mahsulidan, naqqoshlik va texnika to'garagi ishlaridan foydalanishdir. Bundan tashqari muzeylarga va qadimiy inshoatlarga sayohatlar uyushtirish orqali ham ayrim kasblarga qiziqish uyg'otish mumkin. Shunday qilib, kasb tanlashning ijtimoiy jihatidan tashqari, psixologik asoslari ham mavjud bo'lib, bular o'quvchi yoshlarni amaliy faoliyatga tayyorlashda muhum ahamiyat kasb etadi.